

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## **PEDAGOGIK NUTQ MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*G'aniyeva Xayrinso Baxtiyorovna*

*JDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi,*

*Turdiyeva Kamola va Qosimova E'zoza*

*talaba*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchining nutq faoliyatidagi o'rnini, uning nutq madaniyati va uni shakllantirish yo'llari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, nutqiy muloqot, nutq texnikasi, nutq madaniyati, o'qish, tafakkur, xotira, ta'lim-tarbiya.

Har qanday mustaqil va rivojlanayotgan davlatning ertasini har tomonlama yetuk va barkamol tarbiyalangan yoshlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. "Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir" deb ta'kidlagan edilar muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Buning uchun esa avvalo o'qituvchining o'zi tarbiyalangan bo'lishi lozim. Har bir pedagog o'z ustida muntazam ishlashi va mahoratini oshirib borishi lozim. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu nutq madaniyatidir. Biz nutqning inson hayotida, ayniqsa o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rnini haqida gapirar ekanmiz, yosh avlodni mustaqillik, milliy istiqloq mafkurasi g'oyalari ruhida barkamol insonlar qilib tarbiyalashda o'qituvchining bilim saviyasi, dunyoqarashi, madaniyati nutqni belgilovchi vositalar sanaladi.

O'qituvchining barcha ta'lim – tarbiya va ijtimoiy faoliyatida uning nutqi alohida o'rin tutadi. O'qituvchi birinchi galda o'quvchilarni so'z yordamida o'qitadi. Bola qalbida ezgulik, mehr – muhabbat mash'alini yoqish o'qituvchining muqaddas vazifasidir. O'quvchilarni mustaqillik, milliy istiqloq mafkurasi g'oyalari, vatanparvarlik, mexnatsevarlik, xalqimizga, tariximizga, madaniy merosimizga, qadriyatlarimizga hurmat, ogohlik, iymon, e'tiqod, odamiylik g'oyalari ruhida tarbiyalashda o'qituvchi nutqi qudratli vositadir. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, tafakkur so'z vositasida shakllanuvchi bo'lganligidan o'qituvchi o'qituvchi nutki yordamida o'quvchi yangi – yangi ilmiy axborotlarni, bilimlarni o'zlashtiradi, ma'naviy boyib boradi, axloq – odob, madaniyat marralarini egallaydi. Ta'lim berish jarayoni his – tuyg'ularga boy, emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga beradigan axborotimiz ularda hech qanday his – tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab eslab qola olmaydilar. Gap o'quvchilarning ruhij holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida borishi kerak. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar his – hayajonga to'la emotsional ruhdagi materallarni durustroq o'zlashtirib

oladilar. Bunda o'qituvchining ta'sirchan so'zi, nutqi, umuman nutq madaniyati qudratli vositadir. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Ta'lim mazmuni murakkablashib, hajmi esa nihoyat kattalashib ketdi. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'qish faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijobiy munosabat uyg'otib, mehnatning xaqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashish kerak. O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq auditoriyada, darsda, shuningdek sinfdan tashqari paytda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy – pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi. Uning o'ziga xosligi tarbiyachi ekanligi bilan xarakterlanadi.

O'qituvchi nutqining pedagogik va psixologik asoslari.

Har bir o'qituvchi nutqiy faoliyat turlari, nutq apparati, nutqning vazifalari, nutqning uslubiy turlari, o'qituvchi nutqining sifatlarini, nutq texnikasi asoslarini, pedagogik nutq muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini va bashqalarni mukammalroq bilishi kerak. Shu bilan birga o'qituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlarini, notiqlik mahoratini, nutq madaniyatining pedagogik – psixologik asoslarini chuqur bilishi kerak. Nutq ta'lim – tarbiyaning eng muhim vositasidir.

O'qituvchi notiqlik bilimlarini o'quvchilarga nutq orqali berishda pedagogika va psixologiya fanlarining asoslariga, qonuniyatlariga tayanadi. Notiqlik mahorati o'qituvchidan pedagogika va uning asosiy qonuniyatlarini, printsiplarini bilishni va ularni dars, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, nutq jarayonida to'g'ri tadbiiq eta bilishni talab etadi. Ma'lumki, pedagogika fani maxsus tashkil qilingan ta'lim – tarbiya jarayonida inson shaxsini rivojlantirish, ma'lumotli qilish va shakllantirishning mohiyati va qonuniyatlari haqidagi fandır. Shu sababli ta'lim – tarbiya, ma'lumot, rivojlantirish, shakllantirish pedagogikaning asosiy tushunchalaridir. Hozirgi kunda uzluksiz ta'limni amalga oshirish sharoitida har tomonlama barkamol yosh avlodni tarbiyalab yetkazishda pedagogika fanining mavqe'i oshib bormoqda. Mustaqil respublikamizning fuqarolarini yangicha tarbiyalash, o'qitish, komil inson qilib shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyani joriy etishda pedagogika fani ko'p ishlarni amalga oshirishi zarur. O'qituvchi nutqining pedagogik asoslari deganimizda bevosita o'qitishning va tarbiyalashning qonuniyatlariga amal qilishni nazarga tutamiz. Pedagogikaning didaktika bo'limi ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. U ta'lim berish nazariyasi hisoblanadi. Shu jumladan, ayrim fanlar o'qitish uslubiyati ham unga tayanadi. Ayni vaqtda umumiy didaktika ta'lim jarayonining qonun - qoidalarini ochib bergan holda xususiy metodikalardan material oladi.

O'qituvchining vazifasi-o'quvchi ongiga tayyor bilimlarni «qo'yish»dan iborat bo'lmay, balki ularni darsda, nutqda tilga olingan masalalar ustida fikr –

mulohazalar yuritishni o'rgatishdan iborat. O'qitish – ta'lim jarayoni ikki yoqlama jarayondir. Chunki unda ikki shaxs – o'qituvchi bilan o'quvchi ishtirok etadi. Nutq bu o'qituvchining o'quvchilarga bilim, kunikma va malakalar berishi, ularda yangi xaqiqatlarni ocha bilishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyasidir.

O'qituvchi nutqini tinglash – o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni, ko'nikmani o'zlashtirish, qabul qilish jarayoni, o'zlarida bilish qobiliyatini, fikrlash operatsiyalarini va harakatlarini tarkib topish jarayonidir. O'qitish, ta'lim berish jarayonida bilish nazariyasining asosiy qoidalari yotadi. Bu nazariya asosida inson dunyoni biladi. Bilish yo'llari – jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tishdir. Bilish hissiy va aqliy bilishdan iborat. Insonning ana shu bilish jarayonida uning nutqi katta rol o'ynaydi. Nutq albatta, og'zaki va yozma bo'ladi. Shu tufayli o'qituvchining nutqi ham real asosda predmet va hodisalarni kuzatish asosida tuzilgan bo'lib, ularni rivojlantirishni his etgan holda yangi vazifalarni ishlab chiqqan holdagina o'quvchilarga manzur bo'ladi. Shunday qilgan taqdirda, o'qituvchi o'quvchilarda tasavvurlar va tushunchalarning shakllanishiga, ularni o'zlashtirib olishlariga e'tibor beradi, bilimlarni hayotga tadbiiq etishni ko'rsatadi, dunyoqarashni shakllantiradi.

O'qituvchi nutqining psixologik asoslari :

Har bir o'qituvchi o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlanar ekan, u pedagogika bilan bog'liq holda psixologiya fanini ham o'rganadi. Chunki psixologiya fanini yaxshi bilmay turib, notiqlik mahoratini, nutq madaniyatini egallab bo'lmaydi. O'qituvchi o'quvchilarning psixologiyasini bilish bilan bir qatorda uning nutqi psixologik jihatdan to'g'ri tuzilishi lozim. Har bir dars, har bir mashg'ulot psixologik nuqtai – nazaridan talabga javob berishi darkor. Chunki, har bir o'qituvchi o'z nutqi bilan o'quvchilarni ishontiribgina qolmasdan, balki ularni hayajonlantirishi, hissiyotlarini uyg'otishi, emotsional ta'sir ko'rsatishi kerak. O'qituvchi auditoriyaga ta'sir etibgina qolmay, auditoriya bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. O'z navbatida o'quvchi ham mashg'ulot jarayonida o'qituvchiga ta'sir ko'rsatadi. Suhbat yoki hikoya qilishi vaqtida nutqning sur'ati o'quvchilarning fikrlash darajasiga, qobiliyatiga mos bo'lishi kerak. Bu muhim psixologik qonuniyat. Bolalarning fikrlash darajasi yoshiga qarab o'zgarib boradi. Bu holat ham hisobga olinib borilishi zarur. O'qituvchi darsda o'z nutqini psixologik nuqtai nazaridan to'g'ri tuzishi uchun o'quvchi hayotining ruhiy xususiyatlariga, sezish va idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, hissiyot, iroda va bashqalar kiradi. Masalan, ruhiy xususiyatlardan biri idrokni olib qarasak, nutq jarayonida o'quvchi nutqni ixtiyoriy idrok qilishga erishish lozim. Ba'zan o'qituvchi nutq so'zlab turganda o'quvchi unga tikilib turgan bo'lsa ham, uni idrok qilmay to'rgan bo'lishi mumkin. Buning sababi o'quvchining diqqati sezgi organlariga ta'sir qilib turgan ob'ektlarga chalg'ib, xayol ko'chganligidir. Bunday paytda o'qituvchi o'quvchining ruhiy holatidan kelib chiqmagan bo'ladi. Bunday holatda xayotiy so'roqlar, xitoblar, nutq ohangini

o'zgartirish kerak bo'ladi. O'qituvchi nutqi jarayonida o'quvchi tasavvuri katta ahamiyatga ega. Shunga ko'ra o'quvchida tiklash tasavvuri, ijodiy tasavvur, ixtiyoriy va ixtiyorsiz tasavvurlarga bo'linadi. Dars va darslardan tashqari vaqtlarda o'qituvchi nutqi tasavvurni rivojlantirib qolmasdan, dars jarayonida qo'llaniladigan turli ko'rgazmali qurollar, usul va vositalar ham o'quvchi tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. Asosan, o'qituvchi nutqi o'quvchilarda fikrlarni, tafakkurni analiz, sintez, xulosalar chiqarish, qiyoslash va boshqa jarayonlarni tartibga solib turadi va bashqaradi.

Ta'limning psixologik asoslari orasida inson ruhiy jarayonining eng muhim tomoni - xotiradir. O'qituvchi asosan o'z nutqini bolalar xotirasini rivojlantirishga qaratadi. Ongimizda aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash, esga tushirishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi. Har bir kishi o'zi ko'rgan va eshitgan narsasini og'zaki va so'z nutq bilan idora qilib turib xotirada saqlaydi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'z nutqining emotsionalligini, jo'shqinligini oshirib borishi kerak. Natijada o'qituvchi nutqi jarayonida o'quvchilarda sezish, qabul qilish, tasavvur, tafakkur, hissiyot, xotira va iroda kabi ruhiy xususiyatlarning tarkib topishi, rivojlanishiga olib keladi.

Demak, notiqlik mahorati o'quvchidan mantiq, pedagogika, psixologiya, etika, estetika fanlarini va ularning qonuniyatlarini yaxshi bilishni talab etadi.

O'qituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlari.

O'qituvchi nutqi ta'lim – tarbiya berishning asosidir. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonning har tomonlama barkamol, soglom, ma'naviy yetuk fuqarolarini tarbiyalab yetkazishdek sharaflil vazifa yuklangan. Har tomonlama yetuk sog'lom avlodni tarbiyalashda o'qituvchining bilimi, dunyoqarashi, onggi, madaniyati nutqni belgilovchi vositalar hisoblanadi. O'qituvchi faoliyatidagi har qanday dars va tarbiyaviy jarayon uning nutqi orqali amalga oshiriladi. Uning nutqi ilmiy va pedagogik mazmun kasb etadi. Shu sababli o'qituvchi nutqi ilmiy – g'oyaviy jihatdan yuksak madaniyatli, ravon, yumshoq, dilkash bo'lishi lozim. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchalarini nazarda tutgan holda tuzilishi lozim. O'qituvchi nutqi avvalo o'quvchilarga qaratilgan yoki yo'naltirilgan, undalma nutqdan iborat. Bunda o'qituvchi gapirayotgan gaplarini o'quvchi qay darajada qabul qilayotganligini hisobga oladi. O'qituvchi o'z nutqida hikoya qilib berishi, suhbat o'tkazishi va maktab lektsiyasidan foydalanishi mumkin. O'qituvchi gapirayotganida sinfda, bolalarning yuz – ko'zlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga e'tibor berib boradi. Shu sababli dars jarayonida ta'limiy maqsadni ko'zlab amalga oshiriladigan muloqotni o'quv nutq faoliyati deb baholash mumkin. O'quv nutq faoliyati tabiiy nutq faoliyatidan quyidagilari bilan farq qiladi:

Dars jarayonida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat o'qituvchining rejasi buyicha o'tkaziladigan ta'limiy maqsadlar bilan cheklangan

faoliyatdir. Shu sababli nutq faoliyati uchun zarur bo'lgan ruhiy kechinmalar o'qituvchi tomonidan turli ta'limiy usul va vositalar yordamida yuzaga keltiriladi. Qo'llanilgan ta'limiy vositalar o'quvchining ongiga tashqaridan ta'sir etishi tufayli har doim ham kerakli ruhiy kechinmani yuzaga keltira olmaydi. Natijada o'quv nutq faoliyatini yo'lga qo'yishda bir qator jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Aslida o'quv nutq faoliyatining asosiy maqsadi bilimlarni o'zlashtirish, o'qituvchi tomonidan o'quvchilar e'tiborini qozonish. Mashg'ulot jarayonida o'quv nutq faoliyatini yuzaga keltiruvchi sabab o'qituvchi tomonidan berilgan topshirig'ini bajarish, bilim, ko'nikmalarini egallash zaruriyatidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mukammal shakllangan talab darajasidagi o'qituvchining umumiy nutqi ertamiz egalari bo'lgan yosh avlodni ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishda xizmat qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi-tarbiyachi o'z nutqi ustida muntazam ishlashi, nutq madaniyatiga amal qilgan holda darslarni tashkil etishi va o'quvchilarning nutqini to'g'ri shakllantira olishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev "Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi" bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 2020 y

2. N.Bekmirzayev "Nutq madaniyati va notiqlik asoslari" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent-2007

3. N.Bekmirzayev "Notiqlik san'ati asoslari" Toshkent – 2008

4. Sodiqov, H. (2021). Bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirib borishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan jihatlar.

<https://art.jdpu.uz/index.php/phys-tech/article/view/2697>